

BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASAR TAHLIL QILISHNING METODIK XUSUSIYATLARI

Maxsutova Elvira Azat qizi

*Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti
Ellikqal'a pedagogika fakulteti Boshlang'ich talim yònaliishi
3 kurs talabasi*

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinflarda badiiy asar tahlil qilishning metodik xususiyatlari va ulardan foydalanish bo'yicha keng ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: vazifalar, asar, g'oya, ilg'or, pedagogik, texnologiya, obraz, texnika.

KIRISH:

Zamonaviy maktab oldiga qo'yilgan vazifalar, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar umumiyligi rivojlanishining o'sganligi, psixologiya va xususiy metodika sohasidagi yutuqlar sinfda o'qish mazmuni va o'qitish metodlariga o'zgartirish kiritishni talab etmoqda. Shularga bog'liq holda badiiy asarin tahlil qilish metodikasi takomillashtira borildi: takroriy bayon qilish mashqlari kamaytirildi, ijodiy va o'qilgan matn yuzasidan o'z fikrini bayon qilish ko'nikmasini o'stiradigan mashqlar ko'paytirildi, asar qismlari ustida emas, balki yaxlit asar ustida ishlanadigan bo'ldi, asar g'oyasi va obrazlarini tushuntirishda o'quvchilarning mustaqilligi ortdi, matn ustida ishslashda xilma-xil topshiriq turlaridan, ta'linda texnika vositalaridan va ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan ko'proq foydalanila boshlandi va h. k.

ASOSIY QISM:

XX asrning 60-yillarda yaratilgan maktab dasturida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda shakllantiriladigan matn ustida ishslash ko'nikmalari belgilab berildi, shuningdek, 1-4-sinflarda o'qish malakasiga qo'yilgan talablar ancha aniq ajratildi. XX asrning 70-yillari boshlarida mazmuni va metodik apparati jihatidan hayotga yaqinlashtirilgan o'qish kitoblari yaratildi. Mustaqillik tufayli ta'lim sohasida ham katta islohotlar amalga oshirildi. 1999 yil boshlang'ich ta'limning ham "Davlat ta'lim standarti" yaratildi, o'quv dasturlari yangilandi. 2005 yil tajriba-sinov natijalari hisobga olinib, davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqildi, "O'qish kitobi" darsliklari ham yangilandi.

O'zbek maktablarida taniqli rus metodist-olimlari T. G. Ramzaeva, M. S. Vasileva, V. G. Goretskiy, K. T. Golenkina, L. A. Gorbushina, M. I. Omorokova, E. A. Nikitina, N. S. Rojdestvenskiylar, o'zbek olimlaridan A.Zunnunov, K.Qosimova, Q.Abdullaeva, S.Matchonov, M.Yusupov, M. Umarova, X.G'ulomovalar ishlab chiqqan takomillashgan sinfda o'qish metodikasidan ijodiy foydalanilmoqda.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi (asarning mazmunini tushuntirishga oid topshiriq o'qish malakalarini takomillashtirish topshirig'i ham hisoblanadi).
2. Asarning g'oyaviy asoslari va mavzusini, uning obrazlari, syujet chizig'i, kompozistiyasi va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida

umumiylamol topishiga yaxshi xizmat qiladi, shuningdek, bog'lanishli nutqining o'sishi (lug'atining boyishi va faollashishi)ni ta'minlaydi.

3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. Sinfda o'qishga o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Asarni tahlil qilishda hisobga olish zarur bo'lgan muhim omillardan biri uning o'quvchilarga hissiy ta'siridir. O'quvchilar muallifning asosiy fikrini tushunibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan ham hayajonlansinlar. Matnni tahlil qilish o'quvchida fikr ko'zg'atishi, hayotiy tajribasining muallif qayd etgan dalillarga to'g'ri kelish-kelmasligini aniqlashi zarur. Tahlil davomida asarning estetik qimmati, badiiy go'zalligi ham alohida qayd qilib o'tiladi. O'qish darslari o'quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o'qish va asarni tahlil qilish malakasini hosil qiladi. O'quvchilar adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirish orqali badiiy asarning mazmuni, g'oyasi va ahamiyatini anglab ola boshlaydilar.

O'quvchilarning nutqini o'stirishda, yuqoridagilar bilan birga, adabiy tushunchalarni shakllantirish ham muhim o'rinni tutadi. O'quvchilar adabiy tushunchalarni o'rganish natijasida badiiy adabiyot san'atning bir turi ekanligi, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar. Boshlang'ich sinflarda asar tahlilida badiiy til vositalari sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a va adabiy janr turlari ertak, hikoya, masal, she'r, doston, maqol, topishmoq kabilalar bilan amaliy ravishda tanishtiriladi. Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda o'z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o'qish ko'nikmasi o'stiriladi, asar g'oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o'quvchilar nutqi rivojlantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshlang'ich ta'limga bo'yicha yangi tahrirdagi davlat ta'limga standarti // Boshl. Ta'l. Jurnali. Toshkent, 2005. №5. 5, 6, 8-9-betlar.
2. Boshlang'ich ta'limga bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi // Boshl. Ta'l. Jurnali. Toshkent, 2005. №5. 21-33-betlar.
3. Zunnunov A. Va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. T.: O'qituvchi, 1992.
4. Rafiev A. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. T.: 2003.
5. G'ulomov A. Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari. T.: O'qituvchi, 1992.